



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIALIZED EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100095, Toshkent sh. 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel: (998) 71 246-01-95, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2021-yil 29-sentabr

2/16-1/2-18-son

**Vazirlik huzuridagi tashkilotlar,
oliy ta'lif muassasalari va filiallar rahbarlariga**

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vaziri tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son Farmoni bilan vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha **nazorat rejası**"ga muvofiq vazirlik huzuridagi tashkilotlar, hududiy boshqarmalar va vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lif muassasalari o'z faoliyatlariga oid ma'lumotlarni doimiy ravishda rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borishlari belgilangan.

Shuningdek, nazorat rejasining 15-band bilan mazkur tashkilotlar va OTM faoliyatiga oid ma'lumotlarni rasmiy veb-saytlariga joylashtirilganligi monitoringini olib borish vazirlik Axborot xizmatiga yuklatilgan.

Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda, Sizdan mazkur **Nazorat rejasidagi** vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni har chorak yakunida doimiy ravishda vazirlikka kiritib borishingiz, xususan, iyul-sentabr oylari uchun ma'lumotlarni 5-oktabrga qadar taqdim etishingiz so'raladi.

Taqdim etilgan ma'lumotlar asosida monitoring shakllantirilib, natijalari yuzasidan axborot rahbariyatga kiritiladi.

Ilova 11 varaqda (Nazorat reja, namuna jadval).

**Vazirning birinchi
o'rindbosari**



K.Karimov